

NAJMIDDIN KOMILOV ILMIY TADQIQOTLARIDA TAHLIL VA TALQIN
MASALASI**Safoyeva Mehrinoz Sayfullo qizi***BuxDPI 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunos olimi Najmiddin Komilovning asarlarida ilgari surgan badiiy tafakkur, tasavvufiy qarashlari hamda mumtoz adabiyot talqini bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada tahlil va talqin uslublarining badiiy matnni anglashdagi o'rni, ramziy obrazlari ma'nosini ochish hamda tasavvufiy tafakkurning adabiy ifodasiga oid ilmiy – nazariy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, talqin, adabiyotshunos, tahlil, ijod, tafakkur, so'fiyona g'azal, falsafa, millatlar ,axloqiy, Umar Xayyom, tarixiy, ilmiy tahlil, irqchilik, tasavvufiy matnlar, lug'aviy, orifona g'azal, majoziy obraz va h.k.

Kirish

Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov ko'plab tadqiqotlarida madaniy tarixning shiddatli, suronli ,ayni paytda g'oyat muhim va qimmatli sahifalarini qalamga oladi. Muallif bizning aslimizni tanitishga, u orqali esa o'zligimizni anglashga yordam beradi. Olimning bu kabi tadqiqotlari orqali biz minglab millatlar orasidagi qadrimiz, o'rnimizdan voqif bo'lamiz. Adabiyotshunos tasavvufiy matnlarni faqat badiiy emas ,balki ularning falsafiy mazmuniga ham katta e'tibor qaratgan.

Asosiy qism: Adabiyotshunos Najmiddin Komilov tafakkur adabiyoti vakillari ijodini tarixiy kontekstda davr manbalaridan kelib chiqib tahlil qiladi. Adabiyotshunos ko'plab qomusiy olimlarning ijodini o'rganishda faqat tarixiy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmay, matnning ichki falsafasiga ham ahamiyat beradi. Tasavvufiy islohotlar , majoziy obrazlar va so'fiyona g'azallarni faqatgina lug'aviy emas, balki ruhiy ,axloqiy, diniy, falsafiy va tarbiyaviy mazmuni bilan birga tahlil qiladi. Misol uchun, olim Umar Xayyomning quyidagi

Oftob tong kamandini tomga tashladi.

Kunduz xoqoni o'z soqqasini jomga tashladi.

May ich, chunki saxar chog'i Ishq nidosi,

"Ichkil!" ovozasin ayyomga tashladi.

ruboiysini tahlil qilar ekan: "Bu jiddiy she'r va unda parodiya ma'nosi emas, balki boshqa bir falsafiy-optimistik ma'no aks etgan. Bu o'rinda ruboiydagi Vaqt, Ishq, Sharob obrazlarining o'zaro aloqadorligi mavjud deya quyoshning doimiy ravishda har sahar chiqib

turishi, kunduz va kechaning uzluksiz almashishi, ayyomning abadiyligi va bularning Ishq bilan vobastaligini ko'zda tutmaganmi shoir?" deya o'z qarashlari bilan tahlil qiladi.

Olim Al-Beruniy ijodini o'rganar ekan, "Beruniy adabiyotni xalq hayotining in'ikosi, uning tafakkur mevasi, deb tushuntirgan va Beruniy shoir va adiblarni diniy e'tiqodlari, milliy yoxud irqiy belgilariga ko'ra ajratmaydi", [1]- deya ta'kidlaydi Najmiddin Komilov o'z tadqiqotlarida.

Najmiddin Komilov navoiyshunoslik rivojiga ham salmoqli hissa qo'shadi. Navoiy g'azallarini sharhlash, tahlil qilish olim ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. G'azal tahlil qilish asosida olim janrning o'ziga xosligi, vazn xususiyatlari, ularning oshiqona va orifona ko'rinishlari, tasavvuf falsafasi, asosiy timsol tushunchalari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berib o'tadi. Jumladan, olim oshiqona va orifona g'azallarga to'xtalar ekan, shunday deydi: "Navoiy va ulug' shoirlar g'azallarini ikkiga bo'lib o'rganar ekanmiz, shunga amin bo'lamizki, oshiqona g'azallar "sof dunyoviy" mazmundagi asarlar emas, shu kabi orifona g'azal ham butkul dunyoviy g'oyalardan holi deb bo'lmaydi. Orifona g'azallarda ilohiy ma'rifatga erishish yo'li bevosita, to'g'ridan to'g'ri talqin etilsa, oshiqona g'azallarda bu maqsad dunyoviy kechinmalar, hasrat olamining rang-barangligi tasvirlanadi".

Olim Navoiyning quyidagi

Kamand uchiga yetkurmas, g'amu andesha ayyori,
Biyik kechmish magar mayxona tomin sun' me'mori.
Xumorim za'fida kahtil isi to yetti mast o'ldum,
Suvalmishdur magar may loyidin mayxona devori.

g'azalini tahlil qilar ekan, unda keltirilgan kamand, may, mayxona, soqiy, boda so'zlarining qanday timsollarini anglatishini bu so'zlarning asl ma'nosini tahlil qiladi, bu so'zlar tasavvufda qanday ma'no anglatishini izohlaydi. Qolaversa, olim Navoiyning quyidagi

Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidan,
"Ishrabu yo ayuxal atshon" kelur har dam nido

g'azalini :Ey ,Navoiy azal Soqiysi- Xudo fayzidan bebahra qolma, chunki "Ichinglar, ey tashnalar" degan nido keladi har dam deya sharhlaydi. "Ashrakat" deb boshlanuvchi Navoiyning bu mashhur g'azalida olam yagona Parvardigor nuridan harakatda degan tavid g'oyasi ifodalangan"-, deydi adabiyotshunos.

Shuningdek, olim rus adabiyotining yorqin namoyandasi N.G. Chernishevsikiyning ijodiga to'xtalar ekan, u arab, fors, tatar va yahudiy tillarini yaxshi bilganligini takidlab o'tadi. N.G.Chernishevskiy tillarni ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boradigan, xalq madaniyatining o'zgarishi bilan baravar o'zgarib boradigan hodisa sifatida olib tekshiradi, tilning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib beradi, Millning ""Siyosiy iqtisod" kitobiga qaydlar" nomli katta taqdimotida Sharq-u G'arb tillarining o'zaro yaqinligini faktlar

yordamida Osiyo xalqlarini kamsituvchi burjuacha irqiy nazariyaning asossizligini isbotlab bergan"-, deydi olim. N.G.Chernishevskiyning aytishicha, nemis tili bilan fors tili bir-biriga shunchalik yaqinki, "ularni hatto bir tilning ikki lahjasi deb atash mumkin". Xuddi shu kabi "Hozirgi fors tilining etimologik va sintaktik strukturasi ingliz tiliga juda o‘xshashdir".Shunday qilib, N.G.Chernishevskiy til faktlari yordamida irqchilikni fosh qilganligini Najmiddin Komilovning ilmiy tadqiqotlari orqali bilib olish mumkin.

Adabiyotshunos Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Yassaviy, qolaversa, Gomer, Dante kabi faylasuflarning ijodini o'zining yuksak ilmiy saviyasi va tafakkuri orqali tasavvufiy matnlarni falsafiy, tarixiy va ilmiy jihatdan tahlil qiladi."Dante nazarida olamni bilish,balki haqiqatni idrok etish maxbuba chehrasidan yog'iladigan nur vositasida amalga oshadi",-deydi olim. Dante shu ziyo balqishida go'zallikni his etishi, qalbi to'la quvonch bilan olg'a intilishini adabiyotshunos o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tadi.

Xulosa: O'zbek adabiyotshunosligida Najmiddin Komilovning ilmiy tadqiqotlari, maqolalari ,asarlari, tarjimashunoslikka oid tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Xususan, olimning tasavvufiy ijodga bag'ishlagan tadqiqotlari adabiyotshunoslik ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Adabiyotshunosning mumtoz shoirlar haqida , Sharq adabiyotida tasavvuf adabiyotining maydonga kelishi va taraqqiyotiga doir e'lon qilingan asarlari hamma uchun ahamiyatli sanaladi[2]. Najmiddin Komilov o‘z ilmiy izlanishlari orqali tasavvuf va islom ma’naviyati masalalarini chuqur tahlil qilib, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yangi talqinlarda yoritib berdi.Uning asarlari nafaqat nazariy va tarixiy ahamiyatga ega, balki jamiyat ma’naviy hayotini boyitishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois Najmiddin Komilovning ilmiy merosi o‘zbek ilm-fani va ma’naviy tafakkuri rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.